

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida mavjud bo‘sh ish o‘rinlariga tanlov o‘tkazish tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tizimidagi mavjud bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar quyidagi rasmiy havola orqali e’lon qilinadi: <https://vacancy.gov.uz/hrm-vacancy-list?fatherOrganizationId=418>

Mazkur sahifada vazirlik tizimidagi vakant lavozimlar, ularga qo‘yiladigan malaka talablari hamda tanlov shartlari bilan batafsil tanishish mumkin.

Nomzodlar ariza topshirish uchun vacancy.gov.uz platformasiga ONE ID orqali avtorizatsiyadan o‘tgan holda kiradilar. Shaxsiy kabinet orqali nomzod o‘zining ta’limi, mutaxassisligi, ish tajribasi, kasbiy ko‘nikmalari va boshqa zarur ma’lumotlarni to‘ldirib, tanlangan lavozimga elektron tarzda ariza yuboradi.

Tanlov jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich - arizalarni qabul qilish va dastlabki saralash bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichda nomzod tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar vakansiyada belgilangan malaka talablari asosida ko‘rib chiqiladi. Nomzodning ma’lumoti, ish staji, mutaxassisligi va boshqa mezonlarga muvofiqligi tekshiriladi. Belgilangan talablarga mos kelgan nomzodlar keyingi bosqichga o‘tkaziladi.

Ikkinchi bosqich - test sinovi. Test sinovlari Boshqaruv samaradorligi agentligining Toshkent shahar va viloyatlardagi filiallarida o‘tkaziladi. Test jami 40 ta savoldan iborat bo‘lib, quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi: mantiqiy fikrlash (IQ), axborot texnologiyalari bo‘yicha bilimlar, amaldagi qonunchilik asoslari hamda davlat tilini bilish darajasi. Test natijalari asosida belgilangan o‘tish ballini to‘plagan nomzodlar uchinchi bosqichga yo‘llanadi.

Uchinchi bosqich - suhbat jarayoni. Suhbat komissiya tomonidan o‘tkaziladi. Nomzodga tizim orqali tasodifiy ravishda 5 ta savol beriladi. Bundan tashqari, komissiya a’zolari tomonidan qo‘shimcha savollar ham berilishi mumkin. Suhbat savollari ochiq tanlov uchun shakllantirilgan savollar bazasidan tanlanadi va ular bilan quyidagi havola orqali oldindan tanishish mumkin: <https://vacancy.gov.uz/interview-question/question-group/418>

Mazkur havola orqali nomzodlar suhbatda berilishi mumkin bo‘lgan savollar to‘plami bilan tanishib, o‘z bilim va tayyorgarlik darajasini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shu tariqa, vazirlik tizimida ishga qabul qilish jarayoni ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida, uch bosqichli tanlov tartibida amalga oshiriladi.